



MAKTUBLARDA KO'NGIL IFODASI (XURSHID DO'STMUHAMMADNING "HIJRONIM MINGDIR MENING" QISSASI ASOSIDA)

Abdurayimova Irodaxon

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktublarning inson his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifodalashdagi ahamyati, "Hijronim mingdir mening" qissasi kompozitsiyasida maktubning o'rni haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *maktub, muloqot, kompozitsiya, syujet, adresat, badiiyat.*

Insonlar bu dunyoda paydo bo'libdiki, muloqotga ehtiyoj yuzaga kelgan. Chunki inson ijtimoiy mavjudot. Yozuv paydo bo'lgan qadimgi davrlardanoq kishilar o'rtasidagi muloqotning eng asosiy turlaridan biri maktublar turli maqsadlarda foydalanib kelinmoqda. Bu maqsadlarning eng asosiyalaridan biri esa ko'ngil kechinmalari, dil rozlarini ifodalash hisoblanadi. Balki shuning uchun ham xat atamasida qandaydir xabar yetkazish ma'nosi, maktub so'zida esa, ishq, sevgi-muhabbatning badiiy ifodasi ko'proq tushuniladi.

Badiiy adabiyotda xat, maktub bilan bog'liq juda ko'plab hodisalar mavjud. Fikr yuritmoqchi bo'lganimiz Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasi ham maktub asosiga qurilgan betakror asarlardan biridir. Asar boshlanishidan oldin muallif bu haqida shunday deydi:

"Inson qalbining eng nozik va eng dahlsiz, eng erka tuyg'usi – muhabbat. Yozma ijodning eng samimiy, eng sirli va eng jozibali shakli esa – maktub. Muhabbat jozibasiyu, sehrini bayon etishda maktubdan ko'ra qulay va tabiiy shakl yo'q."

Ushbu qissaning kompozitsion tuzilishi katta-kichik maktublardan tashkil topgan. Bu kabi hodisalar adabiyotimizda ko'p uchramaydi. Maktublardan iboratligi jihatidan Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", Iqbol Mirzoning "Bonu" romanlarini hamda Navoiyning "Munshaot"ini ham eslatib yuboradi. Ammo yuqoridagi ikkita asarda maktub mualliflarining adresatga yo'llagan maktublari jamlanib, badiiy asarlar yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda, ushbu asarlarda syujet ketma-ketlikda izchil berib boriladi, voqealar rivoji mavjud. Navoiyning "Munshaot" asari esa turli davrlarda turli kishilarga yuborilgan maktublardan tashkil topgan. "Hijronim mingdir mening" qissasida esa, ma'lum bir syujet chizig'i mavjud emas, unda voqealar muallif va adresatning ketma-ket maktublari fonida boradi. Har ikki qahramonning bittadan maktubi jamlanib bir qismni tashkil etadi. avval yigitning maktubi, so'ngra unga javob tariqasida yo'llangan qizning maktubi keltiriladi. Bular shunchaki xatlar emas, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarilgan.

Asar qahramonlari yuzma-yuz gaplashgandan ko'ra maktub yozishni afzal bilishadi. Chunki har ikkisining qalbida cheksiz ishq olovi bor. Bordi-yu, uchrashgan taqdirlarida ham bir-biriga bir so'z deyolmaydi. Chunki ishq otashi qalblarni kuydiradi. Agar tilga ishor chiqqudek bo'lsa, tillarni kuydiradi, gapirishga tillar ojizlik qiladi. Bu dil izhorlari faqatgina maktublarda oydinlashishi mumkin. "Hayolan ming ko'chaga kirdim. Yashiradigan joyim



yo'q. izingizdan poyladim. Ishxonadan chiqib ikki ayol, bir erkak hamrohingiz edi. Avtobus bekatiga bordinglar. Oramizda hoy desa eshitgulik masofa. Orziqib kutgan lahzalarim, mana marhamat, yetishdim. O'n qadam, besh qadam, uch qadam yursam bas, visol-l. kutilmagan ahvolga tushdim. Jonim, oyog'imni yerdan uzolmasam deng. Mixlangandek yoki yerdan o'sib chiqqan odamdek qilt etib siljiyolmadim. Yuragim qinidan chiqqudek gursillay boshladi.”

Maktublarda ishorlarni qayta o'qish imkoni cheksiz. Yuzma-yuz uchrashganda esa, bunday emas. Xohlagan vaqtingizda ishorlarni eshita olmaysiz. Maktubni qayta-qayta o'qiganingiz sari, undagi so'zlar tobora oydinlashib, ta'siri kuchayib boraveradi. Muallif o'z tuyg'ulari ishori uchun maktubdan boshqa imkonni ko'rmaydi va haqiqatdan ham shunday. Tuyg'ularni ifodalash uchun maktub yagona vosita. Boshqa usullarda bu tuyg'uga aziyat yetishi,ohori to'kilishi, boricha qalbga yetib bormasligi mumkin. “Oramizdagi yolg'iz Ollohga ayon rishtalar sehrini saqlash va ardoqlashning maktubdan bo'lak yana qanday chorasini, imkoni bor?” Aslida maktublarning asl jozibasini shundaki, adresat ko'z o'ngida muallif jonlanadi, xat yo'llovchini o'z tasavvurida his qilgani qadar ko'ra oladi. Maktublar shunday kuchga egaki, asardagi so'zlarning ta'sirchan bo'lishiga aynan maktub shaklida yozilganligi sabab bo'lgan. Muhabbat maktublarda boqiylik kasb etadi. maktub vositasida ikki kishi o'rtasida maktubiy yaqinlik paydo bo'ladi.

Dastlab yigit o'z tuyg'ularini ifoda qilishga yo'l izlaydi va bu yo'lni topgandek bo'ladi. Asarda bu holat shunday izohlanadi: “...tushuniksiz va notavonlikdan xalos bo'lish chorasini izlashga kirishdim. Xat ko'ngil ko'prigi, bu ko'prik ikki kishi uchun bunyod etiladi, unga shu ikki kishidan bo'lak hech kim qadam bosmaydi va unga begona nazar ham tushmasligi kerak. Chunki ikki ko'ngil to'ridagi eng bokira, eng erka orzu-armonlar ushbu ko'prik – maktub vositasi-la yo'llanadi...” Muallif bu xatlarida yorni ulug'laydi, ko'kka ko'taradi, badiiy san'atlardan juda o'rinli foydalanadi. Shubha yo'qki, bularning barchasiga ko'ngildagi ishq majbur qiladi. “...Sizni dur-u javohirlarning asilasiga o'xshatishimda mubolag'a yo'q...” Yorini ilohiy xilqat deb biladi.

Xatlar ketma-ketligi davomida kitobxon qahramonlar xarakteri, kasbi va yana shunga o'xshash ma'lumotlarni bilib olishi mumkin. Yigit rassom edi, va ular bir paytlar qizning ishxonasida ko'rishib turar edi, ammo u paytlarda, bir-biri bilan gaplasha olmas, va ko'ngil kechinmalarini ochiq-oydin ifoda qila olmas edilar. Xatlar davomida qahramonlar bir-birlarini ulug'lab o'zlarini past oladilar, o'zlarini tanqid qilib, yorni ko'kka ko'tarishlari adabiyotimizda, ayniqsa, mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan hodisa bo'lib, komillik belgilaridan biri hisoblanadi. “Sizning teran mulohazalaringiz mening jo'n, sayoz fikrlarimni qanday qabul qiladi, degan qo'rquv sira tark etmagan meni. To'g'risini aytay, shaxsan mendek oddiy qiz nazarida Siz osmondasiz. Osmonda turib yerdagi oddiy bir ojiza qizga mehr qo'yibsiz. Osmoningizga chiqolmasam kerak...”

Muallif asarda ko'plab betakror so'z o'yinlaridan foydalanadiki, bu ham bo'lsa, asar qimmatini yana-da oshiradi. “... Mayli, siz meni osmoningizda turib yaxshi ko'ra qoling, yomon yaxshi ko'rmang, yaxshi yaxshi ko'ring...” Bundan tashqari xatlar davomida qahramonlar sevgisi, ishq darajasining yuksakligini ifodalash uchun mubolag'adan ko'plab foydalanilgan o'rinlar uchraydi: “... Inson nazari tushmagan qamishzor orasidagi g'ira-



shirada tugmachagullar shu qadar oq ediki, ularning oqligini tasavvur qilish va tasvirlash uchun “oq” so’zi ojizlik qiladi. Qorga o’xshataymi, muzga, paxta yo sutga qiyoslaymi? Yo’q, bularning hech biriga o’xshamagan oq-oppoq gul yaproqchalari. Besh yaproqli, uch yaproqli, kapalak qanotidan-da nozik! Kipriklarning uchi siypasa, ozor yetguday. Bandi kiprik tolasidan-da nafis!..” Mubolag’ani ifodalashda fonetik usullardan ham keng foydalanilgan: “... sog’inch daqiqalaridan bunyod bo’lgan navbatdagi uzu-u-un kunning soki-i-in oqshomi...” Asarda tabiat tasvirlari, peyzaj mohirona tasvirlangan o’rinlar ko’plab uchraydi. Ularni o’qir ekansiz, beixtiyor o’zingizni ana o’sha tabiat qo’ynida his etasiz. “... Zich va quyuq qamishzoq oralab o’tgan qilday yorug’lik ko’zimga ignaday qadaladi. Botayotgan shafaqning tilla tolasi. Yotog’iga bosh qo’yayotgan quyosh. Quyuq qamishzor. Qamishzor poyida sochilgan simobrang gulyaproqchalar. E’tibor bering, shu ovloqda chappor urib ochilgan gulyaproqchalarini quyosh nuri istab topib yetib kelibdi. Kumush nur-la qovushibdi tilla tola bu yerda. Kun bo’yi olamni yoritib qartaygan Quyosh botar asnosi tugmacha yaproqchalar oqligidan bahra olish umidida qilcha yo’l ochib oq gullar yotog’iga tilla tuklarini cho’zibdi...”

Asarda qahramon tuyg’ularini yaxshiroq ifodalash uchun boshqa asarlardagi ta’sirchan misralardan ham juda o’rinli foydalanilgan. Masalan, Rauf Parfining “Seni topgunga qadar Men qanday yashadim?” she’ridan. Asar davomida muallif juda ko’plab o’xshatishlardan foydalanadiki, bu asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi: “Ko’nglim to’ridagi kitob javonlari Sizning yaxshiliklaringizga to’lib-toshib bormoqda.”

Asar tarkibiga muallif qahramon nutqi orqali o’z falsafiy qarashlarini ham singdirib yuborgan: “Inson nozikroq tushungani, his qilgani sayin azobi chuqurlashaveradi, iztirob o’tida ko’proq kuyaveradi. O’ylab qolaman: bunday holatlarda tushunmaslik, hissizlik baxt emasmikan?.. Toza dard ko’ngilni musaffolashtiradi.” Sevgi kamchilik ko’radigan ko’zni yopib, fazilat ko’radigan ko’zni ochib qo’yadi. Asar qahramonlari uchun ham aynan shunday: “Sizdagi barcha yomonlik men uchun fazilat hisoblanadi.”

Asar davomida ayrim xatlarda alohida bir butun voqealar hikoya qilinadi va bu voqealar qahramoni kim ekanligi kitobxonni o’ylantiradi. Bu borada muallif sir tutish usulini ham qo’llaydiki, bu orqali kitobxonning yana-da qiziqishi ortib, diqqatliroq bo’ladi. Asar davomida shu oydinlashadiki, qahramonlar bir-birlariga bir umr yetisha olmasligini biladi. Kitobxonni ularning visoliga nima to’sqinlik qilar ekan degan savol o’ylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do’stmuhammad “Hijronim mingdir mening” qissasida kirobxonni behad ta’sirlanishga va chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Maroq bilan, chin qalbdan o’qiladigan haqiqiy badiiy asar yaratadi. Va bunda aynan maktub vositasi juda katta xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ahmedova Sh. Maktubot va adabiy tanqid. Toshkent. “Fan” 2005.
2. Hasanova H. Maktub genesizi, tadrijiylik badiiy asar kompozitsiyasidagi o’rni. MD. - Farg’ona. 2020.
3. Omon Matjon. Adabiy suhbat. Nurli halqachalar. 2012



4. Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening". Qissalar to'plami.
Toshkent. 2007